

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI BAHOLASHDA TA'LIMIY O'YINLARNING O'RNI

Kenjayeva Maftuna

Andijon davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti

Kalit so'zlar: pedagog, metod, texnologiya, uslub, baho, dars, o'yinlar.

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning baholanishida ta'limiy o'yinlarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

THE ROLE OF EDUCATIONAL GAMES IN THE ASSESSMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Kenjayeva Maftuna

Master's student of Andijan state pedagogical institute, Theory and methodology of education and training (primary education)

Key words: pedagogue, method, technology, style, grade, lesson, games.

Abstract: this article talks about the importance of educational games in the evaluation of primary .

Hozirgi rivojlanayotgan davrda, pedagogik nazariyadan tashqari zamonaviy pedagogik amaliyot jarayonlarida o'ziga hos innovatsion metodlardan foydalanish zamon talabi darajasiga globallashti. Bu esa o'z navbatida, rivojlanib borayotgan talim tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hozirda, innovatsion faoliyat va harakatlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, hukumatimizning 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan "Innovatsion faoliyat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni, "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asosan zamonaviy ta'limning ilg'or metodlaridan foydalanish boshlang'ich sinflarda ta'lim oluvchi o'quvchilarning ilmiy ko'nikmalarini oshirishda asosiy me'zon sifatida qabul qilingan. Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini

ko'rsatadigan didaktik va ta'limiy o'yinlardan foydalaniladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. "Ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi"¹.Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil

¹ <https://m.kun.uz/uz/news/2019/11/27/boshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari>

qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida, bu ta'limiy o'yinlar orqali yanada yaqinlik, bir-birini tushunish va hurmat ham oshib boradi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda liderlik, tezkorlik, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Hozirda, maktablarda "Blits o'yin", "Fikrlar jangi", "Dumaloq stol", "Beshinchisi ortiqcha", "Bahs-munozara", "Savollarga javob bering", "To'g'risini top", "Sinkveyn", "Ruchka stol o'rtasida" "Bir nom bilan ayt", "Aqliy hujum", "Zigzag", "Oxirgi so'zni siz ayting" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Avvalambor bunday o'yinlar umumman aytganda ta'limiy metodlar, o'quvchilarning bilimini aniqlash, ularni o'tilgan mavzu yoki yangi mavzularda egallagan yoki egallayotgan bilimlarini mustahkamlash, rivojlantirish eng asosiysi esa ularni to'g'ri baholash uchun asosiy dasturi amal bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, o'quvchilarni baholash bu ularning oldingi bilim saviyasini, shunundek yangi tushunchalarini avvalgi bilimiga nisbatan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligini tushunamiz, albatta. O'qituvchilar o'quvchilar uchun eng foydali va ta'lim faoliyati uchun zarur bo'lgan shakllantiruvchi baholash turlarini yaratish, ulardan amaliyotga tadbiiq qilgan holda oqilona foydalanishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari juda ham o'yinqaroq, qiziquvchan, shoshqaloq shuningdek sabrsiz bo'lganligi sababli, ularga faqatgina ilmiy yo'llardangina foydalanibgina qolmay, balki ularning yosh tuzilishi, shaxsiy harakatlari, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda baholashga harakat qilishimiz kerak deb hisoblanadi. Buning asl sababi esa, boshlang'ich sinf o'quvchilari turli xil o'yinlarni yahshi ko'rib o'ynaydi, qiziqadi va chiqara olmayotgan qobilyatlarini o'yinlar davomida chiqarishga harakat qiladi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlariga ajratiladi. Bularning orasida ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. Misol

tariqasida, “ Ruchka stol o`rtasida” ta’limiy o`yinini ko`rib chiqsak: Bunda, butun sinf o`quvchilariga fan mavzusidan kelib chiqqan holda topshiriq beriladi. Har bir o`quvchi bitta javob variantini bir varaq qog`ozga yozib, uni qo`shnisiga beradi, o`z ruchkasini esa, stolning o`rtasiga surib qo`yadi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarini baholashda ta’limiy o`yinlarning o`rni juda muhimdir. Ta’limiy o`yinlar o`quvchilarning qiziqishini oshirish, o`rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun qulay vositalardir. Ular quyidagi jihatlari bilan ahamiyatga ega:

1. Qiziqishni oshirish: Ta’limiy o`yinlar bolalar uchun o`rganishni qiziqarli qilishadi. O`yin jarayonida bolalar o`zlarini erkin tutishadi, bu esa o`rganishni yanada jozibador qiladi.
2. Fikr yuritish va hal qiluvchanlik: O`yinlar orqali bolalar turli muammolarni hal qilish, qarorlar qabul qilish va fikrlarini ifoda etish ko`nikmalarini rivojlantiradilar.
3. Hamkorlik va jamoaviylik: Ko`plab ta’limiy o`yinlar guruhda o`ynaladi, bu esa o`quvchilar o`rtasida hamkorlik va jamoaviylikni rivojlantiradi.
4. Baholash imkoniyatlari: O`yinlar orqali o`quvchilarning bilim darajasini baholash, ularning qobiliyatlarini aniqlash va individual yondoshuvni amalga oshirish mumkin. Bu, o`z navbatida, o`quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.
5. Ijodkorlik va innovatsion fikrlash: Ta’limiy o`yinlar bolalarga yangi g`oyalarni o`ylab topish va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish imkonini beradi.
6. Samaradorlik: O`yinlar o`rganishni yanada samarador qiladi, chunki bolalar ko`proq o`zlarini jalb qilib, o`rgangan ma`lumotlarni amalda tatbiq etishadi.

Ushbu jihatlari orqali ta’limiy o`yinlar boshlang`ich sinf o`quvchilarini baholash jarayonida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ta’limiy o`yinlar yordamida o`quvchilar

nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtiradilar, bu esa ularning umumiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigon bo'lsak, ta'limiy o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilimlarini rivojlantirishga shuningdek, pedagoglarga o'quvchilarni to'g'ri, haqqoniy va adashmay baholash uchun yordam beradi. O'qituvchi-pedagog avval o'quvchlarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchlar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim. Shunday qilib, ta'limiy o'yin mashg'ulotlar orqali o'quvchlar yangi kasblar bilan tanishadilar, egallagan bilimlarini iqtisodiyotning qaysi sohalarida qo'llash mumkinligini ko'rsatadilar, ushbu fanga bo'lgan qiziqishlari o'zlari bilmagan holda ortadi, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ravishda foydalanishga, o'z o'rtog'ining fikrini sabot va chidam bilan tinglashga, bilimlarini nazorat qil olishga o'z-o'zini baholashga o'rganadilar. Natijada, pedagoglarga ham o'quvchilarini to'g'ri rag'batlantirish va baholash uchun yetarlicha imkoniyatlar ham yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Sobirov. Interfaol metodlar. Farg'ona. 2020
2. Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T.: Iste'dod, 2018.
3. Tolipov O,,, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006,- 146 b.
4. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'llanma. –T.: Fan, 2019, 66 b.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Toshkent – «Yangiyo'l poligraf servis» – 2017